



ISSN 2091-5187

# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ЖУРНАЛ

№4/1

2024



# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2024 йил, 4/1-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис ин ституту

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда  
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий  
жамоаси:**

**Бош муҳаррир:**

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир**

**ўринбосари:**

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

**Масъул котиб:**

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

**Муҳаррирлар:**

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

А.Х.Мингбоев

**Техник муҳаррир:**

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

**Корректор:**

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

**Саҳифаловчи:**

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба  
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида  
тарқатилади.**

**Тахририят манзили:**

140100, Самарқанд шаҳар,  
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,  
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53  
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

**Тахририят кенгаши раиси:**

**М.Э.Пўлатов** – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис  
институту ректори, и.ф.д., профессор

**Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:**

**Д.Х.Асланова** – СамИСИ илмий ишлар ва  
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

**Тахрир кенгаши аъзолари:**

**Б.А.Бегалов** – Ўзбекистон Республикаси Президенти  
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,  
профессор

**М.Қ.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.К.Ғоибназаров** – и.ф.д., профессор.

**М.М.Мухаммедов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Д.Р.Зайналов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Муртазаев** – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

**М.Р.Болтабаев** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Р.Х.Эргашев** – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

**И.С.Тўхлиев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**К.Б.Уразов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Қ.Ж.Мирзаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.И.Исроилов** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Г.М.Шодиева** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.Абдукаримов** – СамИСИ профессори, и.ф.н.

**Р.Қобилов** – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

**С.Н.Тошназаров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Р.Н.Нормахматов** – СамИСИ профессори, т.ф.д.

**А.Бектемиров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**М.Т.Алимова** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**З.Дж. Адилова** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Ш.О.Қувондиқов** – СамИСИ профессори в.б., иқтисод  
фанлари доктори

**Л.Н.Халикова** – СамИСИ профессори, DSc

**Ф.А.Сафаров** – СамИСИ доценти, DSc

**А.М.Каримова** – СамИСИ профессори в.б., DSc

## МУНДАРИЖА:

<b>НАЗАРИЯ ВА МЕТОДОЛОГИЯ</b>	
<b>Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев, Обид Мамаюнусович Пардаев</b> XXI асрда шакллланган янги иқтисодиётлар таркибида креатив иқтисодиётнинг принциплари турларининг назарий масалалари	5
<b>Lola Nazarovna Khalikova, Shamsiddin Kiyamiddinovich Yuldashev</b> Theoretical views of social protection	10
<b>Ибодулла Ҳасанович Ибрагимов, Лариса Алижоновна Мусабаева</b> Касбий компетенцияларнинг синергетик самарадорлиги	13
<b>ИННОВАЦИЯ ВА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ</b>	
<b>Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев, Бехруз Шарофиддин ўғли Усмонов</b> Инновацион ёндашувлар орқали инсон ресурсларини ривожлантириш ва самарадорлигини ошириш йўллари	17
<b>Меҳрангиз Олимовна Мамаюнусова</b> Инновацион иқтисодиёт шароитида камбағалликни қисқартиришнинг “4ГС моделли”нинг моҳияти ва қўлланилиши	22
<b>САНОАТ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ</b>	
<b>Хайрулла Qilichovich Qarshiboyev</b> Korrelyatsiya va regressiya tahlilini korxonaning iqtisodiy rivojlanishini bashorat qilish usuli	27
<b>Shahnoza Abdirashitovna Po‘latova</b> Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida yashil sertifikatlash va ekologik markirovkalash amaliyotini joriy etishning asosiy yo‘nalishlari	32
<b>Gulzira Ikromali qizi Karimova</b> To‘qimachilik sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyatini “yashillashtirish” orqali oshirish	37
<b>ХИЗМАТ КўРСАТИШ ВА СЕРВИС</b>	
<b>Мурод Мухаммедович Мухаммедов, Зарина Муродовна Мухаммедова, Аллаёр Баротович Шакаров</b> Хизматлар соҳасини давлат томонидан тартибга солиш ва қўллаб-қувватлаш – давлат макроиқтисодий сиёсатининг муҳим йўналиши сифатида	43
<b>Marifat Umarovna Xudoyberdiyeva</b> Savdo xizmatlarining ahamiyati va rivojlanishi	49
<b>Nodirjon Begaliyevich Ravshanov</b> Ta‘lim xizmatlari bozorida oliy ta‘lim muassasalari raqobatbardoshligini ta‘minlash	52
<b>Dildora Haydarjon qizi Shaymardonova</b> Qishloq joylarda avtoservis xizmatlari ko‘rsatuvchi subyektlar samaradorligini oshirish	57
<b>Бехзод Абдумаджитович Суюнов</b> Турар-жой кўчмас мулк бозорида баҳолаш хизматлари самарадорлигини ошириш	59
<b>Akram Abduraxmonovich Azizqulov, Akbar Norboyevich Alimov</b> Husayn Voiz Koshifiy ilmiy merosida ovqatlanish etiketining talqini	66
<b>Faxriddin Azimovich Djalilov</b> Xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion faoliyatni amalga oshirish omillari	69

Akram Abduraxmonovich Azizqulov – SamISI, Ijtimoiy fanlar kafedrası mudiri, dotsent,  
fal.f.n.

Akbar Norboyevich Alimov – SamISI, Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti

## HUSAYN VOIZ KOSHIFIY ILMIIY MEROSIDA OVQATLANISH ETIKETINING TALQINI

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada temuriylar davrining yirik olimi Husayn Voiz Koshifiy tomonidan ishlab chiqilgan ovqatlanish odob qoidalarining mazmuni bayon etilgan. Shuningdek, maqolada alloma ilgari surgan sharqona etiket qoidalari, xususan, ovqatlanishning odob-axloq qoidalari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmanligi asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** ma’naviy meros, axloq, odob, taom, ovqatlanish, etiket, islom dini, farz, sunnat, mustahab, tarbiya, qadriyat.

**Kirish.** Insoniyat tamaddunining ilk o‘choqlaridan biri sifatida e’tirof etilayotgan Markaziy Osiyo bashariyat ma’naviy taraqqiyotida o‘zining nodir asarlari bilan beminnat xizmat qilgan ko‘plab allomalarni yetishtirib berdi. Qomusiy mutafakkir allomalarimiz ilm-fan va madaniyatning barcha sohalari bo‘yicha ulkan meros qoldirib ketdilar. Ayniqsa, ajdodlarimiz tomonidan sharqona odob-axloq falsafasiga oid yozib qoldirilgan noyob asarlar xorij olimlari tomonidan hamon yuqori baholanib kelinmoqda. Mutafakkir ajdodlarimiz tomonidan bayon etilgan axloq-odob qoidalarida inson faoliyatining barcha qirralari qamrab olinadi. Xususan, allomalarimiz tomonidan ovqatlanishning musulmon sharq etiketi alohida bayon etiladi. Ovqatlanish odob-axloq qoidalari ayniqsa, Husayn Voiz Koshifiy asarlarida batafsil yoritib beriladi. Biz mazkur maqolada alloma tomonidan bayon etilgan ovqatlanish etiketining mazmunini yoritishga harakat qilamiz

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Husayn Voiz Koshifiyning ovqatlanish odobi xususidagi qarashlarini yoritishda «Futuvvatnomai Sultoniy yoxud Javonmardlik tariqati», “Axloqi muhsiniy” kabi asarlarining 2011 yilda Murodjon Aminov va Faxriddin Hasanovlar[1] hamda 2019 yilda Maxmud Xasaniy, Asadali Hakimjonov, Abdumajid Madraimov va Najmiddin Komilovlar tarjiması asosida nashr etilgan nusxalaridan foydalandik[2]. Shuningdek, alloma axloqiy qarashlarini yoritishda uning "Risolai Hotamiya", "Anvari Suxayliy", "Axloqi Karim", "Lubbo ul-ma’naviy fi-intixobi masna’viy", kabi asarlaridan foydalandik. Bundan tashqari R. Maxmudovning “Xusayn Voiz Koshifiyning falsafiy axloqiy qarashlari” mavzusidagi monografiyasidan foydalandik[3].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Musulmon Sharq mutafakkirlarining, xususan, Husayn Voiz Koshifiy tomonidan ishlab chiqilgan ovqatlanish odob qoidalarini yoritishda obyektivlik, retrospektiv tahlil, mantiqiylik va tarixiylikning birligi, qiyosiy tahlil va shu kabi usullardan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Markaziy Osiyo xalqlari tarixida Temuriylar hukmronligi davri madaniy va ma’naviy yuksalish bosqichi hisoblanadi. XV asrda Temuriylar saltanatining Movarounnahrda poytaxti Samarqand kabi Xuroson mulkining markazi Hirot shahri ham ilm-fan va madaniyat markaziga aylanadi. Temuriy shahzodalarning ilm fanga homiyligi, ijodkor olimlarga bevosita ko‘magi o‘lkada madaniyat va ma’naviyatning yuksalishiga zamin bo‘ladi. Temuriylar saltanatida hukm surgan tinchlik va osoyishtalik, ijod ahliga berilgan erkinlik hamda ularga g‘amxo‘rlik hosilasi sifatida Hirotida Lutfiy, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod, Jaloliddin Davoniy, Husayn Voiz Koshifiy, Fasih Havofiy, Qosimi Anvar, Davlatshoh Samarqandiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxond, Xondamir, Husayn Boyqaro singari buyuk shoir va tarixchilar, rassomlar etishib chiqadilar va o‘zlarining sermahsul ijodlari bilan o‘lka xalqlari ma’naviy taraqqiyotiga muhim hissa qo‘shdilar.

Husayn Voiz Koshifiy (1442/46-1505) islom dinining yirik nazariyotchilaridan biri bo‘lishi bilan bir qatorda falsafa, axloq, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, siyosat, tarix, astronomiya, notiqlik san’ati, tibbiyot kabi sohalarga oid 200 dan ortiq asar yozgani ma’lum [3]. Husayn Voiz Koshifiyning iste’dodini yuqori baholar ekan, uni o‘z himoyasiga oladi, unga yaqindan homiylik

qiladi. Alisher Navoiy o‘zining «Majolis un nafois» tazkirasida Husayn Voiz Koshifiyga alohida o‘rin ajratgan. Husayn Voiz Koshifiy ham Alisher Navoiyga bag‘ishlab «Mavohibi oliya» («Oliy tuhfar») asarini yozgan.

Uning bir qancha asarlarida sharqona axloq odob qoidalari mukammal ravishda bayon etiladi. Alloma insonning hayot faoliyati uchun zarur bo‘lgan barcha axloqiy qoidalarni yoritishga harakat qilgan. Xususan, «Futuvvatnomai Sultoniyy yoxud Javonmardlik tariqati» asarida har biri kishi rioya etishi lozim bo‘lgan taom yeyish va suv ichish odobi, o‘tirish va suhbat qilish odobi, kiyim kiyish va safar qilish odobi, mehmon kutish va yo‘lda yurish, salom berish, birodarlar haqini ado etishga oid axloq qoidalari izohlab beradi.

Alloma inson faoliyatida sog‘lom ovqatlanish zarurligini ta’kidlar ekan, taom yeyish qoidalari xususida alohida to‘xtalib o‘tadi. U taom yeyish odobi xususida fikrlarini bayon etishdan avval shunday deydi: “...hayvonning yeyishi bilan insonning yeyishi orasida farq bo‘lishi kerak. Chunki hayvon yeyish uchun yashaydi, odam esa yashash uchun yeydi. Bu ikki xil yeyishning farqi odobda bilinadi. Ya’ni odamzod taom yeyish odobi va qoidalari saqlaydi, ammo hayvonlar bundan bexabardirlar. Agar taom yeyish qoidalari nechta, deb so‘rasalar, o‘ttiz yettita deb aytgil”. Koshifiy axloqiy mavjudod sifatida insonning har bir faoliyati, xususan, ovqatlanish jarayoni ham muayyan axloq-odob qoidalari asosida bo‘lishi lozimligini ta’kidlamogda.

Islom dini nuqtai nazaridan taom yeyish qoidalari quyidagicha tasniflaydi: “To‘rttasi farz va to‘rttasi sunnat, to‘rttasi mustahab va o‘ntasi adab va to‘rt hurmat va to‘rtta hikmat va yettitasi ehtiyot qoidalari” [1.72]. Alloma farz deganda halol luqmani qo‘lga kiritish, shukur qilish va pok taomni eyish, ya’ni ovqat najosatli va bulg‘anmagan bo‘lishi kerakligiga urg‘u beradi.

Taom yeyishning sunnat amalini bayon etar ekan, ovqatlanishdan oldin qo‘lni yuvish va o‘ng qo‘l bilan ovqatlanishga e’tibor qaratadi.

Husayn Voiz Koshifiy ovqat yeyishni, avval tuzdan boshlashni, ovqatni dasturxon yozib yeyish va dasturxon atrofida o‘tirgan odamlarni ovqatga taklif qilishni taom yeyishning mustahab amallaridan deb hisoblaydi. [1.73]

Taom iste’mol qilishning o‘n adabini bayon etar ekan quyidagilarni ta’kidlaydi: avval chap oyoq bilan o‘tirish; o‘zining oldidan yeyish; boshqalarning ovqat yeyishiga qaramaslik: tovoq (yoki kosa) ning bir chetidan yeyish; ovqatni uchta barmoq bilan yeyish; panjalarni yalab turish; tovoq (kosa)ni tozalab qo‘yish; agar luqma qo‘ldan tushib ketsa olish va bulg‘angan bo‘lsa, tozalab so‘ngra yeyish; taom yeyish vaqtida suyanmaslik; taomdan so‘ng qo‘lni yuvish[1.73]. Ovqatlanishning bu odob qoidalari rioya etish barcha fuqarolardan talab etilgan. Shuning uchun ham xorijiy sayyohlar ajdodlarmizning xizmat ko‘rsatish tizimidagi etiketiga yuqori baho berganlar.

Mutafakkir alloma taom iste’mol qilish jarayonida rioya etish lozim bo‘lgan to‘rt hurmatni quyidagicha bayon etadi: “Agar to‘rt hurmat qaysidir deb so‘rasalar, aytgilkim, bu: birinchidan, taom yeyish paytida boshini qashimaslik, ikkinchidan burunni artmaslik, uchinchidan, og‘izni suvini oqizmaslik, to‘rtinchidan, og‘izga ovqat olib biron bilan gapirmaslik” [1.73].

Alloma luqmani katta olmaslik: ovqatni yaxshilab chaynash, ko‘p narsa yemaslik: to‘q qoringa ovqat yemaslikni taom yeyishning to‘rt hikmati deb ta’riflaydi. Ajdodlarimiz etiketini tashkil etgan taomlanish axloq-odob qoidalari zamonaviy tibbiyotda, xususan, bugungi kundagi gigiyenaga oid adabiyotlarda ham muhim tamoyil sifatida e’tirof etiladi [4.11-229].

Husayn Voiz Koshifiydir taom yeyishning yettita ehtiyot qoidalari deganda quyidagilarni nazarda tutadi: avval hech bir taomni yomon ta’rif qilmaslik, agarchi yaxshi pishmagan bo‘lsada: ovqat qayerdan keltirilgani va kimniki ekanini bilib olmaguncha yemaslik; yolg‘iz ovqatlanmaslik; o‘tirganlarni hammasini ovqatga chorlash; maqtanish, manmanlik yuzasidan ovoza tarqatish uchun berilgan ovqatni yemaslik; taziya oshidan parhyez qilish; bitta taom yeyish bilan qanoatlanish [2.74]. Alloma o‘zining mazkur asarida suv ichishning ham o‘n bir qoidasini batafsil bayon etadi.

Ko‘rinib turibdiki, musulmon Sharq etiketida ovqatlanish jarayonida eng nozik axloqiy talab va qoidalar ham chetda qolmagan. Biz faqat ovqat yeyish odobi xususidagi Husayn Voiz Koshifiy fikrlarini bayon etdik. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, inson faoliyati barcha munosabatlarga doir axloq-odob qoidalari alloma mana shunday batafsil bayon etilgan.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qiladigan bo‘lsak, birinchidan, O‘rta asrlarda musulmon Sharq etiketida ovqatlanish odob-axloq qoidalariga alohida e‘tibor qaratilgan bo‘lib, mutafakkir allomalarimiz bu qoidalarni o‘z asarlarida nazariy jihatdan asoslab berganlar.

Ikkinchidan, temuriylar davrining yetuk allomasi Husayn Voiz Koshifiy o‘z asarlarida ovqatlanish odob qoidalarini batafsil yoritib bergan.

Uchinchidan, ajdodlarimiz etiketida keng o‘rin olgan ovqatlanish odob – axloq qoidalari, xususan Husayn Voiz Koshifiy bayon etgan taom eyishdagi axloqiy talablar hanuzgacha o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas.

Shu bois mutafakkir allomalarimiz tomonidan bayon etilgan sharqona etiket qoidalari, xususan, taom yeyish axloq-odob qoidalarini bugungi kunda kengroq targ‘ib etish maqsadida quyidagilarni taklif etamiz:

Birinchidan, ta‘lim-tarbiya jarayonida, ayniqsa uzluksiz ta‘lim tizimining barcha bosqichlarida alloma ilmiy merosini tarbiyaviy ahamiyatini kengroq yoritish lozim. Ikkinchidan “Odobnoma” va “Tarbiya” darslarida ovqatlanish etiketini bayon etgan alloma ilmiy merosidan samarali foydalanish zarur, uchinchidan, ommaviy axborot vositalarida, ayniqsa ko‘rsatuv va radio eshittirishlarda Husayn Voiz Koshifiyning axloqiy ta‘limotini kengroq yoritib borish maqsadga muvofiqdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Хусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи султоний. Ахлоқи муҳсиний.-Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашри, 2011.-376 бет
2. Хусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи султоний. Ахлоқи муҳсиний.-Т.: «O‘ZBEKISTON» НМИУ. 2019.-382 бет
3. Р.Ж.Маҳмудов. Хусайн Воиз Кошифий/Маънавият юлдузлари. Т. 2001й.241-245 бетлар
4. Шелтон Г.М. Основы правильного питания//Наука исцеления. Книга 3. Издательство «Деловая книга»г.Екатеринбург.1996г.стр.11-229.
5. А.Азизкулов. Хусайн Воиз Кошифийнинг илмий меросида хизмат кўрсатиш одоблари талқини//“Сервис” илмий амалий журнал 2020 № 2. 47-50 бетлар
6. А.Азизкулов, А.Алимов Хусайн Воиз Кошифий асарларида мусулмон шарқ халқлари этикети талқини. //Термизий уламоларнинг Ислом тамаддуни ва жаҳон цивилизацияси ривожига қўшган ҳиссаси. 2021 йил 23-июнь Термизда бўлиб ўтган халқаро илмий онлайн-конференция мақолалари тўплами «TURON NASHR» нашриёти Самарқанд – 2021й. 306-312 бетлар.

<p style="text-align: center;"><b>А.Азизкулов, А.Алимов</b>  <b>Интерпретация этикета питания в научном наследии Хусейна Ваиза Кошифи</b></p> <p><b>Аннотация:</b> В данной статье рассматриваются взгляды на этикет питания, разработанные Хусейном Ваизом Кошифи, крупным учёным эпохи Тимуридов. В статье также обосновывается тот факт, что выдвинутые ученым правила восточного этикета, в частности правила этикета питания, не потеряли своего значения и в наши дни.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> Хусейн Ваиз Кошифи, научное наследие, мораль, нравы, питание, этикет, ценности.</p>	<p style="text-align: center;"><b>A. Azizkulov, A. Alimov</b>  <b>Interpretation of food etiquette in the scientific heritage of Hussein Waiz Koshifi</b></p> <p><b>Abstract:</b> This article examines the views on food etiquette developed by Hussein Waiz Koshifi, a major scholar of the Timurid period. The article also substantiates the fact that the rules of eastern etiquette put forward by the scholar, in particular the rules of food etiquette, have not lost their significance even today.</p> <p><b>Keywords:</b> Hussein Waiz Koshifi, scientific heritage, morals, customs, food, etiquette, values.</p>
--	--

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят  
бўлимида нашрга тайёрланди.

20.11.2024 йилда теришга берилди. 05.12.2024 йилда босишга рухсат этилди.  
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84<sub>1/8</sub>. “Times” гарнитураси. Офсет  
босма усули. Шартли босма табоғи 15,76. Ҳисоб-нашриёт  
табоғи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0134А/24

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг  
матбаа бўлимида чоп этилди.  
Лицензия № 025316.  
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.